

ILK O‘RTA ASR TASAVVUF FALSAFASINING JALOLIDDIN RUMIY DUNYOQARASHIGA TA’SIRI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-269-275>

Xamdamov Erkin Ibodullayevich
“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti
Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi
Tel.: +99899 582-08-04
e-mail: hamdamoverkin5@gmail.com
Orcid: 0009-0003-0761-964X

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jaloliddin Rumi dunyoqarashining shakllanishida, Tasavvuf – islomiy fikr tarixida eng murakkab va chuqur ma’naviy-falsafiy oqimlardan biri bo‘lib, uning ilk shakllari VIII–IX asrlarda shakllana boshlagan va bu jarayon, ayniqsa, Khorasan, Basra va Bag‘dodda faol kechgan. Bu davrda shakllangan tasavvufiy tafakkur Qur‘on va hadislariga asoslangan bo‘lishiga qaramay, unda ayniqsa Yunon falsafasi, zardushtiylik, hind Vedasi va nasroniy asketizmining ayrim unsurlari sintez holda namoyon bo‘ladi. Ilk o‘rta asr tasavvufiy tafakkuri asosan qalbni poklash, zohidlik, ichki haqiqatni anglash va shaxsiy tajriba orqali Yaratganga yaqinlashuv g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, bu asosiy paradigmalarning Jaloliddin Rumi dunyoqarashiga ko‘rsatgan ta’siri beqiyos bo‘lgan. Tasavvufda ilgari surilgan vahdat, ilohiy ishq va botiniy idrok g‘oyalari Rumi tafakkurida o‘zining eng nozik ifodasini topadi. Uning qarashlarida borliq - bu yagona haqiqatning tajallisi, inson esa shu haqiqatni anglash yo‘lida izlovchidir. Rumi uchun hayot - ruhning kamolot sari harakati, o‘lim esa ajralish emas, balki asl manbaga qaytishdir. Tasavvufiy meros ta’sirida u nafsni poklash, qalbni uyg‘otish va ishq orqali Haq bilan birlashish g‘oyasini yuksak falsafiy darajada talqin etadi.

KIRISH

Rumi tafakkurining shakllanishida alohida rol o‘ynagan omillardan biri uning otasi Bahouddin Valad (Sultonul Ulamo) bo‘lib, u o‘zining “Maorif” asarida qalbni ilohiy ma’rifat bilan to‘ldirish, tajriba orqali ilohiy haqiqatga erishish g‘oyalarini ilgari surgan. Bu yondashuvlar keyinchalik Rumi ijodida yangi, chuqurroq va estetik shakllarda o‘z aksini topdi. Masnaviy ma’naviy asarida Rumi qalbni “oyna”ga o‘xshatadi, ya’ni u orqali Haqni aks ettirish mumkin, lekin faqatgina bu oynani poklagan holda. Bunday tashbihlar ilk tasavvufiy adabiyotlarda – masalan, Zunnun Misriy, Hasan Basriy, Bayazid Bistomiy kabi mutasavviflarda ham mavjud bo‘lib, bu izchillik Rumi tafakkurining tasavvufiy avlodga mansubligini ko‘rsatadi¹. Tanqidiy jihatdan qaraganda, ayrim tadqiqotchilar Rumi ijodini g‘arbiy mistitsizm bilan qiyoslab, uning asarlarida universallikni ko‘rsatishga urinishadi. Masalan,

¹ Boydadayev A. (2024). Shri Aurobindo Gxosh va Jaloliddin Rumi falsafasida ong tasavvurlarining komparativistik tahlili, Tamaddun Nuri, 14–15-betlar.

Taufiqurrahmon va hamkorlari Rumiylarida sabr, muhabbat va taqdirning ilohiy tafsiri orqali hayot ma'nosining ochib berilishini hermenevtik tahlil orqali izohlaydi². Bunday yondashuvlar, albatta, ilmiy ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, ba'zan tasavvufiy g'oyalarning islomiy metafizik ildizlarini soyada qoldirish xavfini tug'diradi. Aslida esa, Rumiylarining asosi Qur'onning botiniy talqiniga, ya'ni tariqat va haqiqat maqomlari orqali Haqni topishga borib taqaladi³.

Rumiylarning inson haqidagi falsafiy qarashlari ham ilk o'rta asr tasavvufining mohiyatiga uyg'unidir. U insonni "tomchi" deb atab, bu tomchining maqsadi "dengiz"ga – ya'ni Allohga qaytishdir. Bu yerda Jaloliddin Rumiylar Yaqin Sharq tafakkuridagi "mikrokosm-makrokosm" g'oyasini so'fiylik asosida izohlab, insonni kosmik bir butunning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Salomova H. Y. va Kurbonov N. bu fikrni chuqur tahlil qilib, Rumiylarning "insoniy mohiyat" tushunchasi orqali ilohiy mujassamlarni ifodalaganini ta'kidlaydi⁴. Shuningdek, Rumiylarda haqiqatning nisbiy emas, mutlaq shaklda idrok etilishi masalasi ham muhim. U uchun haqiqatga eltuvchi yo'l ko'p bo'lishi mumkin, ammo uning manbai yagona – bu Haqdir. Bu qarashlar uning g'azallarida, xususan "Devoni Kabir" asarida ham aks etadi, bu esa Rumiylar ijodining ilk o'rta asr tasavvufidagi "vahdatul vojud" (borliqning birlikda mujassamlashuvi) g'oyasi bilan uyg'unligini tasdiqlaydi. Rumiylar o'z davridagi falsafiy va tasavvufiy qarashlarni nafaqat davom ettirgan, balki ularni poetik shaklda yangi bosqichga ko'targan. U tasavvufni nafaqat ma'naviy kamolotning yo'li sifatida, balki estetik yuksaklikning ham manbai sifatida namoyon qilgan. Uning she'riyati orqali ko'ngil pokligi, haqiqatga sadoqat va ilohiy muhabbat g'oyasi inson qalbida muqaddas o'rin egallaydi.

Islom ma'rifati tarixida tasavvuf falsafasi o'zining yuksak ruhiy-axloqiy qirrasini, ontologik va gnoseologik tushunchalari bilan alohida nazariy-amaliy maktab sifatida shakllangan bo'lib, uning ilk nazariy asoslari VIII–IX asrlarda Bayazid Bastomiy, Hasan Basriy, Zunnun Misriy va Junayd Bag'dodiy kabi ulamolar faoliyatida namoyon bo'ldi. Bu jarayonda nafsni tozalash, Allohga yaqinlashish maqsadi yo'lida botinni irfon bilan ravshanlashtirish markaziy maqsad sifatida ko'rildi⁵. Safarova N. dissertatsiyasida juda muhim bir qiyosiy yondashuv qo'llagan — u tasavvufiy axloqning amaliy hayotga ta'siri va ijtimoiy munosabatlar ichida qanday targ'ib qilinganini ko'rsatgan. Bu esa Rumiylarning ham "odamiyat bilan munosabat axloq bilan boshlanadi" degan qarashlari bilan uyg'un⁶.

Ilk tasavvuf g'oyalarining asosiy xususiyatlaridan biri bu zohiriy shariatning doirasida qolmasdan, botiniy ma'rifat sari intilish, ya'ni ichki mohiyatga e'tibor

² Taufiqurrahmon T., Putri E. W., Pratama D. R. (2024). Exploring Jalaluddin Rumi's Hermeneutic of Love, Patience and Destiny, *Journal of Al-Tamaddun*, 27–29-betlar.

³ Nicholson R., Kayadibi S. (2007). *The Mathnawi of Mawlana Jalaluddin Rumi*, 40–45-betlar.

⁴ Salomova H. Y., Kurbonov N. (2023). Jalaluddin Rumi's Human Essence and His Comments on the Types, *Asian Journal of Basic Science & Research*, 31–33-betlar.

⁵ Комилов, Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, 2009. – 240 б. (27-б.); Сафарова, Н. (2002). Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий кадриятлар масаласи. Фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2002. – 145 б. (34–35-б.).

⁶ Сафарова, Н.. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий кадриятлар масаласи. Фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2002. – 145 б. 35-б.

qaratish bo'lgan. Shu nuqtai nazardan, ruhiy-axloqiy yuksalish, ishq va haqiqiy ma'rifat tasavvufning poydevori sifatida talqin qilingan. Bu falsafiy tushunchalar XII-XIII asrlarda Andalus va Sharq olamida yashab ijod etgan Ibn Arabi (1165–1240) tomonidan to'liq ontologik tizimga solindi. Uning «Vahdat ul-vujud» kontseptsiyasida haqiqiy mavjudot – Yagona Zot, barcha boshqa mavjudotlar esa Uning zohiriy tasviridir, degan nazariya yuzaga keldi⁷. Mazkur g'oya Rumiya tafakkuriga o'ta kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bunday ontologik yondashuv Rumiya ishqi orqali birlikka yetish g'oyasi sifatida qayta ifodalandi: ishq – ilohiy nurning inson qalbidagi aksidir. «Masnaviyi ma'naviy» asarida Rumiya ishqi na faqat ilohiy birlikning ifodasi, balki ruhiy ehyo va botiniy kamolotning yagona yo'li sifatida talqin qiladi: “Ishq tufayli hayot ma'no kasb etadi. Ishqsiz yurak qasr kabi bo'sh qoladi”⁸.

Rumiya tafakkuridagi ikkinchi asosiy yo'nalish bu ishqi ruhiy-ma'rifiy tabiatidir. Unda ishq – shunchaki hissi tushuncha emas, balki ilohiy irfoniy yechimga olib boruvchi ruhiy harakatdir. Bu g'oyalar nafaqat Ibn Arabi, balki Shams Tabriziy bilan uchrashuvdan so'ng yanada kuchaydi. Aksar tadqiqotchilar Rumiya falsafiy uyg'onishi aynan Shams ta'sirida yuzaga kelganini ta'kidlaydilar⁹. Bu ikki buyuk irfon sohibining muloqotlari nafaqat Rumiya falsafasini, balki butun tasavvuf ta'limotini yangi bosqichga ko'tardi.

Rumiya asarlaridagi asosiy mafkuraviy nuqta bu «inson» tushunchasining ontologik, ruhiy va axloqiy yuksalish nuqtai nazaridan tahlil etilishidir. Unga ko'ra, inson – ilohiy nurning zohiriy aksi, va uning vazifasi ushbu nurga qayta yetishdan iborat. Bu nuqtai nazar tasavvufdagi insonparvarlikning yuqori bosqichini ifoda etadi. Buni To'xsanov Q. va Izbullaeva G.V. asarlarida Rumiya axloqiy-insonparvarlik g'oyalari asosida tarbiya modeli sifatida yoritilganini ko'rishimiz mumkin¹⁰.

Rumiya irfon maktabi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham shakllangan. Uning ta'sirida Mavlaviya tariqati tashkil topdi. Bu tariqatning eng muhim xususiyati zikrning estetik va musiqaviy shakllari orqali Allohga yaqinlashish, raqs, she'r va musiqa orqali ma'rifatga yetmoqdir. Gulpinarli va Ziyoevlar ta'kidlaganidek, Mavlaviya maktabi inson qalbini ijod va muhabbat bilan poklash usulini tatbiq qilgan¹¹. Qayd etish joizki, Rumiya falsafasining shakllanishida ilk tasavvuf maktablari, xususan Junayd Bag'dodiy va Zunnun Misriy, alohida ta'sir ko'rsatgan. Junayd ta'limotidagi «sukut, zikr va tafakkur» kontseptsiyasi Rumiya badiiy-simvolik shaklda qayta jonlangan. U zikrni faqat til bilan emas, qalb bilan anglashni targ'ib qiladi. Bu nuqtada uning irfoniy uslubi falsafiy metodga aylanadi.

Rumiya falsafasi zamonaviy tadqiqotlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'zbekiston, Turkiya, Eron, Rossiya va G'arb olimlari bu mavzuni falsafa, teologiya, madaniyatshunoslik va pedagogika nuqtai nazaridan tahlil qilganlar. Masalan,

⁷ Urazov, B.B. The “Vahdat-Ul Vujud” concept of Jalaluddin Rumi. // Journal of Critical Reviews, 2020, 7(17): 57–60.

⁸ Румий, Жалололидин. Маснавийи маънавий. / Форсийдан тарж. Ж. Камол. – Тошкент: Meriyus, 2010. – 846 б. (214-б.)

⁹ Фиш, Радий. Жалололидин Румий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 368 б. (132-б.)

¹⁰ Тўхсанов, Қ. Маснавий сабоқлари. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 232 б. (101-б., 134-б.)

¹¹ Гулпинарли, А. Мавлавия баъд аз Мавлоно. – Техрон, 1366 х. – 742 б. (223-б.); Зиёев, Х.М. Суфийский орден мавлавия. – Душанбе, 2007. – 208 б. (105-б.)

Safarova N., Yunusova G., Urazov B.B., Karimov S.K. kabi mualliflar Rumiyni falsafasini diniy bagʻrikenglik va maʼnaviy-axloqiy yuksalishning asosi sifatida koʻrsatishgan¹². Shuningdek, Ibrohimova I.X. va Zarrinkʻybnning ishlari Rumiyni ijodining manba asoslariga doir yechimlar taklif qilgan¹³. Shuningdek, Rumiyni “Masnaviy” asari butun tasavvuf tafakkuri tarixidagi markaziy pogʻona boʻlib, u turli irfon maktablari, xususan Kubraviya, Naqshbandiya va Mavlaviyaning umumiy ruhiy dunyoqarashini uygʻunlashtirgan. Ushbu falsafiy maktablar Rumiyni asarlaridagi nafs, axloq va ishqga oid kontseptsiyalar orqali bir-biri bilan muloqotda boʻlib, zamonaviy tasavvufiy falsafaning metodologiyasini belgilab berdi¹⁴.

Jaloliddin Rumiyni dunyoqarashi, uning “Masnaviy maʼnaviy” (“Masnaviy Maʼnaviy”) asarida mujassam boʻlgan gʻoyalari va bu gʻoyalar orqali shakllangan tasavvufiy tafakkur tahlili ilk oʻrta asr islom falsafasining umumiy paradigmasi doirasida koʻrib chiqilishi lozim boʻlgan murakkab gnoseologik, ontologik va aksiologik mezonlarga asoslanadi. Rumiyni, avvalo, Qurʼon va hadislardan ilhomlanib, sufiya olamining ichki holatini, insoniy kamolot va Haq bilan ittihad yoʻlini poetik-falsafiy ifodalashga intiladi. Bu jihat ayniqsa “Masnaviy maʼnaviy”da ochiq koʻrinadi, u yerda inson ruhi, nafs bilan kurash, sabr va muhabbat orqali Xudo bilan yaqinlashish gʻoyalari chuqur falsafiy oʻlchovda aks ettiriladi¹⁵.

Rumiyni sufiya dunyoqarashiga asos boʻlgan tasavvufiy epistemologiya — maʼrifat manbai sifatida ichki ilhom va kashfni asosiy nuqtaga chiqaradi. Bu qarashlar Al-Qushayriy, Gʻazzoliy, Ibn Arabi singari mutasavviflar taʼsirida shakllangan boʻlsa-da, Rumiyni ularni oʻz poetik metaforalari orqali yangi badiiy-falsafiy darajaga olib chiqadi¹⁶. Ayniqsa, uning “Fixi mo fixi” (“Fi-hi ma fi-hi”) asarida keltirilgan allegorik hikoyalar orqali kashf va tajribaning ruhiy-diniy mohiyatini sharhlashi, tasavvufni shunchaki diniy-amaliy oqim emas, balki falsafiy tafakkur maktabi sifatida talqin qilishga asos beradi¹⁷.

Rumiyni tafakkurining asosida insonning ontologik maqomi va uning Haq oldidagi masʼuliyati muhim oʻrinda turadi. Inson oʻz mohiyatiga koʻra ilohiy manbadan yaralgan boʻlib, dunyoga sinov sifatida yuborilgan. Bu fikr “Masnaviy maʼnaviy”dagi

¹² Сафарова, Н. (2002). Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий қадриятлар масаласи. Фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2002. – 145 б.; Urazov, B.B. The “Vahdat-Ul Vujud” concept of Jalaluddin Rumi. // Journal of Critical Reviews, 2020, 7(17): 57–60.; Юнусова Г.С. Абдулқодир Гийлоний маънавий меросида инсон мохиятининг фалсафий таҳлили. фал.фан. док. (dsc) Дисс... –Самарканд, 2019. -Б.230.; Уразов Б.Б. (2021). Specific features of the scientific and spiritual heritage of Jalaliddin Rumi. Журнал: Zamonaviy fan, taʼlim va tarbiya, 2021-yil, №11/1, б. 61–66.; Каримов С.К. (2008). Амир Темур ва темурийларнинг тасаввуфга муносабати. Тошкент: Фан, 2008. – 126 б.

¹³ Иброҳимова, И.Х. (2005). Муъвлана Jalaladdin Ruminin “Masnavi-ye maʼnavi” asari islom tasavvufunin asos gaunaglarundan biri kimi. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертациянинг автореферати. – Боку: 2005. – 33 б. (18-б.); Зарринқуб, А. (1373 х.). پله پله تا ملاقات خدا (Palla-palla ta mulaqoti Khudo). – Техрон: Nashr-e Sukhan, 1373 х.ш. – 341 б. (112-б.).

¹⁴ Уразов, Б.Б. (2021). Specific features of the scientific and spiritual heritage of Jalaliddin Rumi. // Zamonaviy fan, taʼlim va tarbiya, №11/1. – Урганч, 2021. – Б. 61–66. (62-б.).

¹⁵ Руми Джалаладдин. Дорога превращений. – М., 2012. – С. 28–43.; Саидолимов К. С. Образ человека в рассказах и притчах «Маснави маʼнави». – Душанбе, 2003. – С. 6–9.

¹⁶ Лапицкая О. А. Философские основания суфийского учения ал-Кушайри. – Москва, 2013. – С. 11–13.; Насыров И. Р. Основания исламского мистицизма. – М., 2009. – С. 103–110.

¹⁷ Тохиров З. Ш. Аллегорические рассказы в «Фихи мо фихи». – Душанбе, 2004. – С. 6–9.; Махмаджонова М. Т. Религиозно-философское учение Джалолуддина Руми. – Душанбе, 2007. – С. 87–95.

ko‘plab qissalarda ramziy obrazlar orqali tasvirlanadi: masalan, qaldirg‘och va dengiz, yelkama-yelka yurgan yo‘lovchilar, dev va abror obrazlari orqali insondagi ikki ziddiyat — nafs va ruh qarama-qarshiligi yoritiladi¹⁸.

Ilk o‘rta asr tasavvufining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida, insonning kamolot sari yo‘li, ya‘ni tariqat jarayoni, to‘rtta asosiy bosqich orqali tahlil qilinadi: shariat, tariqat, ma‘rifat va haqiqat. Rumiya ana shu to‘rt bosqichni faqatgina nazariy doirada emas, balki ichki ruhiy tajriba asosida bayon qiladi. Shu orqali u mutasavviflikni shunchaki taqvorlik emas, balki ruhiy sayr sifatida tasvirlaydi¹⁹. Shuningdek, Rumiya antropologiyasi ham tasavvufiy yondashuvda chuqur falsafiy tahlilga tortiladi. Unga ko‘ra, inson jamiki borliqlar orasida yagona mavjudotki, unda ilohiy nur va hayvoniy nafs uyg‘unlashgan. Insonning vazifasi esa ana shu nafsiy xususiyatlarni jilovlab, ruhiy poklanish sari yo‘l olishdir. Bu qarashlar T.I.Asomuddinzo²⁰ va K.S.Saidolimov²¹ tadqiqotlarida puxta asoslangan. Ilmiy manbalarda Rumiya tilining poetik xususiyatlari ham o‘rganilgan bo‘lib, uning metaforik boyligi, aforizmlari va tashbehtar tizimi tasavvuf falsafasining sirli mohiyatini badiiylashtirishga xizmat qilgan. X. SH. Kabirov²² va O.SH.Igbolov²³ tadqiqotlarida bu jihatlar tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan chuqur ochib berilgan. Shunday qilib, Jaloliddin Rumiya tafakkuri ilk o‘rta asr tasavvuf falsafasining eng mukammal ifodasi bo‘lib, unda inson va Haq munosabati, ruhiy poklanish, metafizik anglash, ma‘rifat va muhabbat tushunchalari zamonaviy falsafiy talqinlarda ham dolzarbligicha qolmoqda. Uning asarlari ham nazariy, ham ruhiy-amaliy jihatdan chuqur tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan boy manba bo‘lib qolmoqda.

XULOSA

Bundan ko‘rinadiki Rumiyaning tasavvuf falsafasi insonning nafaqat ichki dunyosini poklash, ilohiy haqiqatni qalban his etish va Allohga muhabbat orqali yaqinlashish g‘oyasiga asoslanadi. Rumiya dunyoqarashida eng muhim o‘rin muhabbatga beriladi - muhabbat nafaqat insonlar o‘rtasidagi tuyg‘u, balki butun borliqni birlashtiruvchi, yaqinlashtiruvchi ilohiy kuch sifatida talqin qilinadi.

Rumiya ko‘ra, inson bu dunyoda vaqtinchalik mehmon bo‘lib, uning asl maqsadi o‘z ruhini kamolga yetkazish va Haq bilan birlashishga intilishdir. U tashqi shakl va rasm-rusumlardan ko‘ra ichki ma‘no va ruhiy poklikni ustun qo‘yadi. Biz buni uning qarashlaridagi nafsni tiyish, sabr, shukr va tavozelik kabi fazilatlarni yuksak qadrlanganini ko‘ramiz.

¹⁸ Акимушкин О. Ф. Вдохновенный из Рума. – М., 1986. – С. 63–65.; Топбаш О. Н. Кувшин воды. – Москва, 2007. – С. 118–124.

¹⁹ Карамхудоев Ш. Х. Сравнительный анализ антропологии Носира Хусрава и Джалаледдина Руми. – Душанбе, 2020. – С. 203–210.; Якоби А. Ф. Мировоззрение Джалалуддина Руми и суфийская традиция. – М., 1991. – С. 13–15.

²⁰ Асомуддинзода Т. И. Проблема человека и его судьбы в произведении Джалалуддина Руми. – Душанбе, 2017. – С. 14–18.

²¹ Саидолимов К. С. Образ человека в рассказах и притчах «Маснави ма’нави». – Душанбе, 2003. – С. 6–9.

²² Кабиров Х. Ш. Специфические особенности языка поэзии Джалаладдина Руми. – Душанбе, 2009. – С. 10–14.

²³ Игболов О. Ш. Лексико-семантический анализ особенностей пословиц и поговорок в «Маснави ма’нави». – Душанбе, 2017. – С. 45–52.

Rumiy falsafasining yana bir muhim jihati - birlik g‘oyasi (vahdat). Unga ko‘ra, butun mavjudot yagona manbadan kelib chiqqan va oxir-oqibat yana o‘sha manbaga qaytadi. Bu qarash insonlar o‘rtasida mehr-oqibat, bag‘rikenglik va tinchlikni targ‘ib etadi.

Xulosa qilib aytganda, Rumiy tasavvuf falsafasi insonni komillikka yetaklovchi yo‘l bo‘lib, uning markazida muhabbat, ruhiy poklanish va ilohiy haqiqatni anglash turadi. Bu ta‘limot bugungi kunda ham insoniyatni yaxshilik, birlik va ma‘naviy yuksalishga chorlab kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.Boydadayev. Shri Aurobindo Gxosh va Jaloliddin Rumiy falsafasida ong tasavvurlarining komparativistik tahlili, Tamaddun Nuri, 2024-yil.
2. T.Taufiqurrahmon, Putri E.W, Pratama D.R. Exploring Jalaluddin Rumi’s Hermeneutic of Love, Patience and Destiny, Journal of Al-Tamaddun 2024.
3. Nicholson R, Kayadibi S. The Mathnawi of Mawlana Jalaluddin Rumi. 2007.
4. Salomova H. Y., Kurbonov N. Jalaluddin Rumi's Human Essence and His Comments on the Types, Asian Journal of Basic Science & Research. 2023.
5. Н.Комилов. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннахр, 2009.
6. Н.Сафарова. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий кадриятлар масаласи. Фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2002.
7. В.В.Уразов The “Vakhdat-Ul Vujud” concept of Jalaluddin Rumi. // Journal of Critical Reviews, 2020, 7(17): 57–60.
8. Жалолитдин Румий. Маснавийи маънавий. / Форсийдан тарж. Ж. Камол. – Тошкент: Meriyus, 2010.
9. Ф. Радий. Жалолитдин Румий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
10. Қ.Тўхсанов Маснавий сабоқлари. – Тошкент: Маънавият, 2010.
11. А.Гулпинарли. Мавлавия баъд аз Мавлоно. – Техрон, 1366 ҳ.
12. Х.М. Зиёев. Суфийский орден мавлавия. – Душанбе, 2007.
13. Г.С. Юнусова. Абдулқодир Гийлоний маънавий меросида инсон мохиятининг фалсафий таҳлили. фал.фан. док. (dsc) Дисс... –Самарканд, 2019.
14. Б.Б.Уразов. Specific features of the scientific and spiritual heritage of Jalaliddin Rumi. Журнал: Zamonaviy fan, ta‘lim va tarbiya, 2021-yil, №11/1, б. 61–66.;
15. С.К.Каримов. Амир Темур ва темурийларнинг тасаввуфга муносабати. Тошкент: Фан, 2008.
16. Руми Джалалатдин. Дорога превращений. – М., 2012.
17. К.С.Сайдолимов Образ человека в рассказах и притчах «Маснави маънави». – Душанбе, 2003.
18. О.А.Лапицкая. Философские основания суфийского учения ал-Кушайри. – Москва, 2013.
19. И. Р. Насыров. Основания исламского мистицизма. – М., 2009.
20. З.Ш.Тохиров. Аллегорические рассказы в «Фихи мо фихи». – Душанбе, 2004.

21. О. Ф.Акимушкин. Вдохновенный из Рума. – М., 1986.
22. Ш.Х. Карамхудоев. Сравнительный анализ антропологии Носира Хусрава и Джалаледдина Руми. – Душанбе, 2020.
23. Т.И.Асомуддинзода. Проблема человека и его судьбы в произведении Джалалуддина Руми. – Душанбе, 2017.
24. Х.Ш.Кабиров. Специфические особенности языка поэзии Джалаладдина Руми. – Душанбе, 2009.
25. О.Ш.Игболов. Лексико-семантический анализ особенностей пословиц и поговорок в «Маснави маънави». – Душанбе, 2017.